

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

SPORT FANLARI USLUBIYO TI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat
fakulteti dekani _____ dots. Muqimov O. E.
“ _____ ” _____ 2013 y.

**5141900 – jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun**

**“O'QUVCHI YOSHLARNI FUTBOLGA QIZIQISHLARI VA ULARNI
FUTBOLGA YO'NALTIRISH YO'LLARI”**
mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: 404 gr. talabasi Lutfullayev J
Ilmiy raxbar: Olimov A.I.

BMI Sport fanlari uslubiyoti kafedrasi _____ sonli yig'ilish qarori
bilan himoyaga tavsiya etilgan:

Kafedra mudiri: Shokirov U _____

JIZZAX – 2013

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
	Mavzuning dolzarbligi	5
	BMI maqsadi va vazifalari	5
	Pedagogik tadqiqot uslublari	5
I BOB	O'QUVCHI YoShLARNI FUTBOL TO'GARAKLARIGA	
	TANLAB OLISH MASALALARI	7
1.1.	Sport o'yinlariga bolalarni tanlab olish xususiyatlari	7
1.2.	O'quvchi yoshlarni futbolga qiziqishlari va tanlab olish masalalari	14
1.3.	Futbolda futbolchilarni kompleks nazorat qilish masalalari	27
II BOB	YOSH FUTBOLCHILARNI TEXNIK – TAKTIK TAYYORGARLIGINI TARBIYALASH	30
2.1.	Turli yoshlarda sportchilarni organizm xususiyatlarini o'rganish	30
2.2.	Futbolchilarni tarbiyalashda, o'quv-mashg'ulot ishlarini tashkillashtirish	36
2.3.	Futbolchilarni qobiliyatlarini bilishda nazorat mashqlarini ahamiyati	40
	XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR.....	44
	ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	46

KIRISH

Mustaqillik sharofati tufayli yurtimizda sog'lom, ma'nan va jismonan barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustivor yʻnalishi sifatida bosqichma-bosqich yʻz yechimini topib kelmoqda. Bu borada ayniqsa Prezident I.A.Karimov rahbarligida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim tʻyɡ'risida» gi Qonun, «Yʻzbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish tʻyɡ'risida»gi Prezident Farmoni hamda ushbu jamg'arma faoliyatini tashkillashtirish haqidagi Hukumat Qarori, xalq ta'limi tizimini isloh qilish, yʻrta umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini zamon talablari darajasiga kʻytarish bʻyyicha qilinayotgan hayrli ishlar kelajak avlod istiqbolini belgilab beruvchi fundamental tadbirlar sirasiga kiradi.

Shu bilan bir qatorda hali joylarda, jumladan uzoq qishloq hududlarida joylashgan yʻrta umumta'lim maktablarida yʻquvchilarni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga tʻylaqonli jalb qilish hamda shu orqali ularning jismoniy va funksional jihatdan shakllatirish ishlarida kamchiliklar bisyordir.

Sportda tanlashning maqsadi o'quvchilarning sportning biror turi talablariga javob beradigan shaxsiy qobiliyatlarini va nimaga qodir ekanliklarini har tomonlama o'rganishdan iborat.

Sportda tanlashning muhim asoslaridan biri tanlab olish bosqichlari masalasidir. Ularning har biri o'zining tashkil etish va tanlab olish metodikasiga, layoqatli va is'tedodli sportchilarning qobiliyatini oldindan bilish kabi xususiyatlarga ega.

Birinchi davr – sport maktablariga qabul qilish va gruppalarni to'ldirish. Ikkinchi davr – oddiy, maktabda tayyorgarlik ko'rgan layoqatli sportchlarni oldindan aytib berish va uchinchi davr – sport mahoratini yaxshi o'zlashtirib olgan sportchilar orasidan mamlakat o'smirlar, yoshlar va milliy terma komandalariga nomzodlar tanlab olishdan iborat.

Tanlab olish sistemasi sportchilar faoliyatini chuqur va atroflicha o'rganish va shu sport turining sportchi psixologiyasiga va organizmiga qo'yiladigan talablarini aniqlashga bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun ham tanlab olishning birinchi davri bir – ikki mashg'ulotdan tortib bir oygacha, ikkinchi davr – ikki yilgacha, uchinchi davr esa – uch-to'rt yilgacha davom qilishi tavsiya etiladi. Uchinchi davr hammadan muhim, chunki unda iste'dodli sportchilar orasidan eng yaxshilarini, kelajakda xalqaro klassdagi sport masterlari talablarini bajara oladigan sportchilarni olishi mumkin bo'ladi. Sport mutaxassislarining fikricha, tanlab olishning asosiy prinsiplaridan biri komplekslilik va serqirralikdir, unda:

Shaxsni har tomonlama chuqur o'rganish, psixologik holatlarni aniqlash, nerv sistemasi tipologik xususiyatlarini baholash, jismoniy sifatlar rivojlanishining darajasini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Umidli sportchilar hozirgi zamon metodikasiga binoan og'ir nagruzkali mashg'ulotlardan so'ng o'z kuchini tez va yaxshi tiklashi lozim. Sportchining kelajagiga baho berishda bunga ahamiyat berish zarur.

Uzoq yillar davomida muntazam ravishda mashq qilish natijasida bu ko'rsatkich yaxshi rivojlanadi, biroq bunda tabiiy qobiliyat muhim o'rin tutadi.

To'g'ri tanlab olish va kelajakni ishonch bilan aytish shug'ullanuvchilarning dastlabki va oxirgi natijalari o'rtasidagi aloqadorlik bilan aniqlanadi, bunda ularning o'sish darajasi ham hisobga olinadi.

Sportda tanlashning nazariy asoslari, kelajagi porloq sportchilarni tanlab olish metodi ilmiy jihatdan o'rganishni tashkil etishga imkon berdi. Ko'rinib turibdiki, sportda tanlay olish masalalari **dolzarb** masalalardandir. Shu sabab biz o'z bitiruv ishimizda yosh futbolchilarni tanlab olishdagi xususiyatlarni o'rganishni **maqsad** qilib oldik.

Bitiruv ishining **vazifalari** ikkita bo'lim bo'yicha o'rganildi.

Birinchi vazifa – bu sport o'yinlariga tanlab olishdagi asosiy omillarni nazariy tahliliy ishini amalga oshirish.

Ikkinchi vazifa – bu futbolchilarni yosh xususiyatlarini va buni asosida takomillashtiriladigan o'quv-mashg'ulot prinsiplarini o'rganish bo'lgan.

Mazkur malakaviy bitiruv ishida bitta **pedagogik usuldan** foydalanildi. Bu usul nazariy – tahliliy usuldir. Ya'ni mazkur mavzuga bo'lgan maxsus ilmiy-adabiyotlarni nazariy tahlili amalga oshirildi. Unda mavzuga tegishli bo'lgan asosiy qonuniyatlar, tashkil qiluvchilar, omillar, vosita va usullar, pedagogik nazorat qilish usullari, nazorat qilishda qo'llaniladigan mashqlarni ahamiyati kabi masalalar o'rganilib, ish olib borildi.

Asoslangan klassifikasiya sportning bitta yoki bir nechta turi bilan shug'ullanuvchi shaxsning qobiliyatiga to'g'ri baho berishga, trenirovkaning u yoki bu metodi samaradorligini kuzatish imkonini beradi. Klassifikasiyaga harakat, funksional va psixik malakalar uchun

umumiy bo'lgan talablar asos qilib olingan. Sportchi harakatining juda yaxshi rivojlanishi sport mahorati cho'qqilarini egallashga imkon yaratadi. Shu asosda sportning 30 turi uch gruppaga bo'linadi. Birinchi gruppaga 9 ta davriy turi kiradi, ikkinchisi texnik jihatdan qiyin bo'lgan 12 turidir, unda koordinasiya qobiliyatlari asosiy hisoblanadi. Uchinchi gruppaga yakka kurash turlari va sport o'yinlari kiradi, bunda sportchilar kelajagini aniqlashda ruhiy holat va qobiliyat asosiy rol o'ynaydi.

Yuqori malakaga ega bo'lgan futbolchilar tezkorlik va kuch ishlatishning maxsus tayyorgarligida hamda joyni aniqlash qobiliyatlari bo'yicha yaxshi natijalarga ega bo'lishdi. Musobaqalar davomida o'yin harakatlari sonidagi farq sezilib turibdi. Shu sababdan ham avtor yosh futbolchining voyaga yetishida ko'pgina omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi va ularni baholashda eng kerakli ko'rsatkichlarga e'tiborni qaratish kerak, deb hisoblaydi. Yosh va yuqori malakali futbolchilar texnik va taktik tayyorgarligi ko'rsatkichlarining analizi kuzatish davrida farq borligini yana bir bor isbotladi.

Yaqin vaqtlardagi natijalarni aytib berishni ishlab chiqishda yuqori malakali sportchilarga xos bo'lgan sifat xususiyatlari asos qilib olindi. Ancha keyingi natijalarni oldindan aytib berish metodlarini ishlab chiqishda esa asosiy e'tibor yuqori malakali sportchilarni aniqlashdagi eng kerakli sifatlarga qaratiladi.

I BOB. O'QUVCHI YOSHLARNI FUTBOL TO'GARAKLARIGA TANLAB OLISH MASALALARI

1.1.Sport o'yinlariga bolalarni tanlab olish xususiyatlari.

Sportga yo'naltirish va sportni ixtisoslashtirish iste'dodlilarni izlash hamda ularni topish bilan boshlanadigan, ixtisoslashtirilgan mashqlar davomida yo'naltirilgan o'qitish bilan davom etuvchi yaxlit jarayonning davrlari hisoblanadi.

Sportga yo'naltirish uning nazariy va metodologik asoslariga binoan tanlash o'ziga xos shakli sifatida qaralishi mumkin. Shuning uchun mahorat (professional) yo'naltirish shart-sharoitlari nazariy asoslarini sport tanlovida qo'llash mumkin (18,20,22,). Ko'plab mualliflar (17,28) sport tanlovi va yosh sportchilarni tayyorlashni boshqarish masalalarini muhokama qilishda, «sport tanlovi» va «sportga yo'naltirish» terminiga mos o'z tushunchalarini kiritadilar.

Umuman yuqorida ko'rsatilgan, turli mualliflar tomonidan ifoda etilgan qoidalarining mazmuni ma'nosi bo'yicha bir-biriga yaqin va sport tanlovi metodlari bolalar, o'smirlar hamda yoshlar aniqlanadigan ma'lum sport turida yoki sport turlari guruhida shug'ullanish uchun ularning sportga yaroqliliklarini tahmin qilinadigan tadqiqotlar metodlarini (pedagogik, psixologik, tibbiy biologik, ijtimoiy) o'z ichiga oluvchi tashkiliy-metodik tadbirlar tizimini ifodalaydi.

Sportga yo'naltirish - bolalarning individual qobiliyatlari, layoqatlari va qiziqishlarini hisobga olish bilan, bolalar va yoshlarga sport ixtisosligi predmetini tanlashlarida tashkil etilgan yordam ko'rsatishga

yo'naltirilgan, tanlash, sportga yo'naltirishi maqsadi- sportning u yoki bu turi talablariga maksimal darajada javob beruvchi shug'ullanuvchilarning individual metodlari (qobiliyatini rivojlantirish asosi hisoblanuvchi) va xususiyatlarini har tomonlama o'rganish va aniqlash hisoblanadi.

Sport tanlovi qo'yilgan masalalarni hal etish uchun tayyorgarlikning butun davrida bo'lgani kabi, ularni davrma- davr hal etishda ham muhim rol o'ynaydi. Yu.D.Jeleznyak tomonidan voleybolga qo'llanilgan sport tanlovi mohiyati ancha keng ifodalab berilgan.

Muallif voleybolda tanlash o'yin faoliyatiga, yuksak qobiliyat darajasiga ega va o'yin ko'nikmalarini muvafaqqiyatli egallashni ta'minlovchi organizm xususiyatlarin, raqobatchilik yuksak darajasini va musobaqalashish ishonchli samaraliligini, ko'p yillik tayyorgarlik barcha talablarini bajara oluvchi sportchilarni aniqlash bo'yicha tadbirlar to'plamidan iborat deb hisoblaydi.

Sifat ko'rinishi o'zgarib, tanlovning butun tayyorgarligi davomida, voleybolchilarni ko'p yillik tayyorlashga yordam beradi. Sportchilarni tanlash va tayyorlash, ma'lum sport turi kuchli sportchilari ega bo'lgan va sport qobiliyati xususiyatini tashkil etuvchi sifatlar (modelli xususiyatlar) to'plamini bilishga asoslanadi.

Mana shu mazmunda ko'pchilik mualliflar (16,18,) murabbiyda obyekt modeli mavjudligi (ya'ni erishilishi kerak bo'lgan holati modeli va uning hozirgi holatidagi sportchi jamoasi) sportchilarni tanlash hamda ularni tayyorlashni samarali boshqarish majburiy, shart deb hisoblaydilar. Dastlabki davrda olingan va shug'ullanuvchilar yakuniy natijalar

o'rtasidagi yaqin bog'liqlik mavjudligi sport qobiliyatlarini rasional tanlash va ishonchli tahmin qilinishini ko'rsatadi (25).

Sport o'yinlari bo'yicha ishlarni tahlil qilish ilmiy tasavvurlar rivojlanib borgan natijasida tanlash davrlari o'zgarganligini ko'rsatadi. Masalan, I.F.Zorkin, A.D.Ganyushkin tanlash ikki davrini ko'rsatadilar.

1. Sportning ma'lum turida, ixtisoslashtirish maqsadida, yangiliklarni tanlash.

2. Musobaqalarda ishtirok etishga tayyorgarlik darajalari bo'yicha terma jamoalariga nomzodlarni tanlash.

Basketbol sohasida mutaxassislar A.Nikolich, V.Paranosich tanlashda ikkita asosiy turlarini ko'rsatadilar: tartibsiz va tashkil etilgan (rejali), ichki sezgilarga tayanib tanlash, hatto tashkil etilgan faoliyat sharoitlarida ham alohida iste'dodli sportchilarni tanlash mumkin bo'lgan hodisalar tabiiy borishiga asoslangan. Mualliflar bunday yondoshishga hamma ham o'ziga xos imkoniyatlar bo'lmaydi, deb hisoblaydilar.

Biroq, mualliflarning aytishlariga qaraganda, tashkil etilgan tanlashda, hatto tanlash bo'yicha yetuk mutaxassis ham kerakli kuzatish davri va o'yinchini tekshirib boriladigan boshlovchi sportchining ixtisoslashtirish muhim sifatlarini baholash imkoniyatiga ega bo'lmay xatoga yo'l qo'yishi mumkin. Mana shundan kelib chiqib, mualliflar tanlovning tayyorlov (dastlabki) va yakuniy davrlarini ko'rsatadilar.

Dastlabki tanlov ixtisoslashtirilgan mashqlarning kirish va boshlang'ich davri hisoblanadi. Yakuniy tanlov esa faqatgina uzoq vaqt ixtisoslashtirilgan mashqlar o'tkazilishidan keyingina o'tkaziladi.

Bu davr mualliflarning fikricha, basketbolda yosh sportchilarni tayyorlov guruhiga kiritilganidan so'ng, 18 oyni tashkil etadi.

Tennisda tashkiliy tanlov o'tkazish fikriga qo'shilib, T. Ivanova va N.Roshkova yetakchilar iste'dodlarini paydo bo'lishini passiv kutib o'tirish, o'yinchilar bir necha avlodlarini yo'qotishga olib kelishi mumkinligini aytadilar. M.S.Bril faol tanlov o'tkazish zarurligiga e'tiborni qaratadi.

Tanlov tizimini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlarning rivojlanishi ko'p jihatdan ushbu yo'nalishning metodolgiyasi ishlab chiqilganlik darajasi bilan belgilanadi.

Muhim metodologik tamoyillar quyidagilar hisoblanadi: kompleks yondashish; sport manfaatlari va shaxs manfaatlarining birligi; tanlash va tarbiyaning yaxlitligi (23).

Ko'rsatilgan metodologik tamoyil (prinsip)larning asosliligi turli yoshdagi va malakali voleybolchilar uchun tadqiqotlarda tasdiqlanadi. Masalan, V.K.Balsevich ham qator metodologik prinsiplarni ko'rsatadi: asosiy belgisi: longgitudial nazorat va axborot to'plash: biologik ishonchliligi. Asosiy belgisi tamoyiliga tadqiqotchi amal qilgan holda, aniq sport turida yuksak natijaga erishishga yordam beruvchi motorikasi morfunktional kompleksi elementlarini aniqlaydi va o'rganadi.

Nazorat va axborot to'plash tamoyili yosh sportchilarni nazorat qilish ko'p yillik ma'lumotlari bo'yicha axborotlarni to'plash va ishlab chiqarish tizimini ishlab chiqish bilan bog'liq.

Biologik ishonchlilik tamoyilini yaratish, sportchini yuksak sport mahorati davrida uni kutib turgan juda yuqori yuklamalar bilan mashq

bajarish ekstremal sharoitlari bilan bog'liq sog'lig'i holatida mumkin bo'lgan o'zgarishlarni asosli ravishda taxmin qilish zarurligi talab etiladi. Tanlov masalasini hal etishda sportchini sinovlar va o'lchovlar – bir necha davri bilan uzoq vaqt o'rganish va tekshirib borish to'g'risidagi ma'lumotlarning amaliy ishonchliligini hamda aniqliligini ancha oshiradi va muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Sport o'yinlari (19,26), suzish , og'ir atletikada tanlash masalalari bilan shug'ullanuvchi mualliflar ishlarini tahlil qilish tanlov masalalarini hal qilish sportchilar qiziqishlari va qobiliyatlari mosligini hamda sport faoliyati talablarining sportchi shaxsiga mosligini ko'p yillik aniqlash tamoyiliga tayanishini ko'rsatadi. Tanlovning samaraliligini oshirish uchun ma'lum sport turi talablariga eng yuksak darajada javob beruvchi aniq sonli va sifatli ko'rsatkichlari bilan sportchi shaxsi tuzilishi muhim omillarini bilish zarur.

Adabiyotlarni o'rganib chiqish – sportchi shaxsining tuzilishi asosiy omillari morfofunktsional va psixofiziologik xususiyatlari hamda aniq sport turi uchun xos bo'lgan jismoniy sifatlari rivojlanishi darajasi hisoblanishini ko'rsatadi. Yordamchi omillarga, bolalarda ba'zi morfofunktsional, funksional va psixik yetilish jihatlarining individual suratda rivojlanishlari hamda turli vaqtlarda o'z yetukligiga erishishi bilan bog'liq harakatlanish imkoniyatlari (o'sishning tezligi va syokinlashishi davri va vaziyatlari, maksimumga erishish vaziyati) rivojlanishidan yoshi o'zgarishlarining xususiyatlari kiradi.

Ancha ko'p sonli tadqiqotlar mazmunlari metodologik, sport qobiliyati muammosi yana ishlab chiqilishi kerakligini ko'rsatadi.

V.I.Volkov, V.I.Fipinlarning fikri bo'yicha, ular tashkil topish davri holatida, qator mualliflarning fikriga ko'ra, sportda tanlash tabiiy iste'dodni baholashga ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi, shu bilan bir vaqtda yosh sportchining morfologik, funksional va psixofizik xususiyatlarining rasmiylik hamda muhit omillarini ta'sirini hisobga olib, har tomonlama tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sport o'yinlari turlariga bolalarni tanlab olish sohasidagi ishlar orasida basketbol, voleybol, tennis, qo'l to'pi bo'yicha yozilgan ishlar diqqatga sazovordir. Bolalar va o'smirlar sport maktabining basketbol bo'limiga 9-12 yoshli bolalar qabul qilinadi. Tanlab olishning birinchi davrida asosiy e'tibor salomatlikka, jismoniy tayyorgarlikka, harakat uyg'unligiga va boshqalarga qaratiladi. Bolalarni harakatchan o'yinlardan iborat bo'lgan bir qator sinovlar bo'yicha tanlab olinadi. Bu o'yinni yaxshi o'rganib olish uchun bo'lgan o'ziga xos qobiliyatni aniqlashga yordam beradi.

Bolalar jismoniy sportlari va o'ziga xos qobiliyatlari sinov natijalariga qarab besh balli sistema bilan baholanadi.

Harakatli o'yinlar kompleksi taktik tafakkur qilish, diqqatni boshqa tomonga jalb qilish, reaksiya tezligi, nerv sistemasi harakatchanligi va boshqalar kabi sifatlarni aniqlash uchun qo'llaniladi. Keyinchalik bolalarning basketbol o'yini talablariga shaxsiy qobiliyatlarining javob berishida chuqur tekshirib ko'riladi. Bu davrda mustaqillik, hamkorlik, aktivlik, dadillik, maqsadga intilish kabi shaxsiy xislatlar ham o'rganiladi. Yosh basketbolchilarni o'rganishda asosiy metodlardan biri pedagogik kuzatishlar hisoblanadi. Sportchi jismoniy xislatlarning shaxsiy o'sishi va

uni o'yin davomida harakatlar bilan taqqoslashi trenerga shu sportchining o'yin faoliyatiga layoqati bor-yo'qligini bilib olishda yordam beradi. Pedagogik kuzatishlar va kontrol sinovlar natijalari asosida qobiliyatli va mehnatsevar bolalar tanlab olinadi.

Voleybol mashg'ulotlari uchun bolalarni dastlab tanlab olish va gruppalarni to'g'ri tashkil etish o'rinbosar sportchilarni muvaffaqiyat bilan tanlashda sport muhim rol o'ynaydi. Sport maktablarida voleybol bo'yicha tanlab olish asta-sekin olib boriladi.

Gandbol o'yinini yaxshi o'rganib olishni belgilovchi bola qobiliyatining o'ziga xos ko'rsatkichlariga baho berish birinchi navbatda test o'tkazishga va kuzatish natijalariga bog'liq bo'ladi. Yosh gandbolchining o'ziga xos qobiliyatini rivojlantirish maqsadida metod va vositalarni to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega.

Gandbol bo'yicha o'quv gruppalari tashkil etish va bolalarning sportdagi natijalarini oldindan aytib berishda testlar o'tkazish metodi va o'yinga tayyorgarlikni analiz qilish asos qilib olinadi. Bunda pedagogik metodlarni va shug'ullanuvchilar sog'lig'i to'g'risidagi ma'lumotlarni ham e'tiborga olish lozim.

Bundan tashqari, bolaning ruhiy imkoniyatlariga baho berish ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu yosh sportchining psixik sifatlari rivojlanishi darajasini aniqlashga, gandbolchining o'yin priyomlarini yaxshi o'rganib olishiga imkon beradi.

Birinchi bosqichda gandbol o'yiniga qobiliyatli bolalar tanlanadi va tanlangan sport mutaxassisligi bo'yicha dastlabki mashg'ulotlar tashkil etiladi. Dastlabki tayyorgarlik bosqichida bolaning gandbol o'yiniga yaroq-

liligi aniqlanadi, tanlangan mutaxassislikka bola imkoniyatlarining javob bera olishi va taklif etiladigan ta'sir vositalari va dastlabki ko'rsatkichlarining o'zgarish darajasi aniqlanadi.

1.2. O'quvchi yoshlarni futbolga qiziqishlari va tanlab olish masalalari

Futbol amaliyotining tarkibiy qismlarini analiz qilish natijasida unda diagnostikaning ilmiy asoslangan sistemasi hamda yosh futbolchi kelajagini aniqlash masalalari ko'rsatib o'tilmagani aniqlandi. Ayni vaqtda tanlab olish, pedagogik kontrol va o'yinchilarni o'rgatish prosesslari doimo takomillashib boradi. Asosan tanlab olishning uchta turi ishlatiladi:

1. Bolalarni ularda futbolga qiziqish endi boshlanib kelayotgan paytda birin-ketin tanlab olinaveradi. Tanlab olish priyomlari takomillashtirish va trenirovkaning oddiy sharoitlari davrida va uyushmagan xolda o'yinlar o'ynash davrida boshlanadi. Bunda futbolga ishqibozlik va yaxshi o'ynash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. O'yinchi qanchalik yaxshi o'ynasa, uning futbolga bo'lgan havasi shunchalik ortadi va aksincha. Tanlab olishda yosh futbolchilarning yutuqlarini bir-birlariga taqqoslab ko'riladi, keyinchalik ularning xarakteristiklari mashhur futbolchilar xarakteristiklari bilan solishtiriladi. Shunday ham bo'ladiki, o'smirlar tayyorgarlikning ba'zi jihatlarida orqada qoladilar, lekin bu ularning yaxshi o'yin ko'rsatishlariga to'sqinlik qilmaydi. Ular o'zlari uchun ta'bir joiz bo'lsa, kompensasion omil yaratadilar. Masalan, shunday o'yinchilar borki, ular o'zlari sekin

yugursalar-da. yoki kam harakat qilsalar-da, o'yinning borishini juda yaxshi sezadilar va o'z vaqtida to'pni aniq oshirib boradilar.

2. Empirik tanlab olish - bunda trenerlar tomonidan tajriba asosida tanlab olishning eng ko'p qo'llaniladigan turi. Bu yerda gap pedagogik tadqiqotni belgilash (yoki ekspert baho) haqida boradi. Ekspertiza ko'p jihatdan shundan iboratki, trener ma'lum bir o'yinchini "bebaho model" bilan taqqoslab ko'radi. Bu model ehtimol bo'lmasligi mumkin, balki u jahonga mashhur o'yinchidir. Ekspertiza sifati trenerning bilimi va tajribasiga, uning "bebaho model" ni tushunishiga bog'liq. Birinchi o'rinda futbolchining hatti-harakatidan kelib chiqadigan umumiy taassurotlar turadi. Ko'pgina trenerlar talantlarni tanlab olish qobiliyatiga ega bo'ladilar, ular asosan o'yinchilarni shu yo'l bilan tanlab oladilar.

Ekspertiza yordamida o'yinchining eng yaxshi tomonlarini aniqlab olish mumkin, lekin oldindan biror narsa deyish qiyin bo'ladi. O'smirlar jamoalarida a'lo o'yin ko'rsatgan o'yinchilar katta futbolga o'tganlaridan so'ng o'rtacha o'yinchi bo'lib qolganliklari va aksincha, avval o'rtacha o'yinchi keyinchalik a'lo darajadagi futbolchiga aylanganligi haqida misollar ko'p. O'yinchini tajribaga asoslanib tanlab olishda ham hatoliklar bo'lishi mumkin.

O'yinchilarni tanlab olishda an'anaga ko'ra jismoniy sifatlar va to'pni olib yurish texnikasiga katta e'tibor beriladi, o'yin davomida fikrlash esa keyingi rejada qolib ketadi.

Murabbiy ko'pincha o'yinda fikrlashni futbolchining taktik mahoratiga qarab baholaydi, tanlab olishning eng asosiy davri yosh bo'lgan va hali mahorat yetishmagan vaqtga to'g'ri keladi. Bunday holatda

o'yindagi fikrlashning o'sib borishini aniqlash qiyindir. Lekin taktik mahorat oshib borgan taqdirda ham o'yin davomidagi fikrlashni baholab bo'lmaydi, chunki taktik mahorat yaxshi o'yin harakatlaridan kelib chiqadi, o'yin harakatlari esa ko'plab faktorlarga egadir.

3. Kompleks tanlab olish - bunda trener, vrach va psixolog ishtirok etishi ko'zda tutiladi. Ko'plab tadqiqot ishlari va testlarni analiz qilish natijasida biz yosh talantning kelajakda o'sishi haqida aniq fikr aytay olamiz. Futbolchilarning sport mashg'ulotlarini yaxshi o'tkazishi ko'p jihatdan ular tayyorgarligining o'sishini to'g'ri kontrol qilib borish bilan bog'liqdir. Keyingi yillarda sportchilarning qanday tayyorgarlik ko'rayotganliklarini kuzatish metodikasiga katta ahamiyat berilmoqda. Trener kontrol sistemasiga mashg'ulotlarning eng kerakli tomonlarini kiritadi, ba'zi vaqtlarda u buning uchun maxsus apparaturalardan ham foydalanadi.

Ko'p hollarda kontrol sinovlar va testlardan foydalaniladi. Pedagogik kontrol tezkorlik sifatleri, kuch, umumiy va maxsus jismoniy chiniqish, epchillik, texnik priyomlarni egallash va boshqalarning o'sishini o'zichiga oladi.

Bir necha o'yinlar davomida pedagogik kuzatishlar olib borish tanlab olishning asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Bu metodika orqali faqat texnika va taktika ko'rsatkichlari hisobga olinadi, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlariga esa e'tibor berilmaydi. Bundan tashqari, pedagogik kuzatishlar ko'rsatkichlari ko'pgina hollarda shartli hisoblanadi, chunki u sportchini ma'lum sharoitlarda, tekshiruvchining o'zi ishtirok etayotgan komanda sostavi hamda raqib komanda sostavlari

chegaralanib qo'yishini xarakterlaydi. Tanlab olishning boshqa metodi bo'yicha trenerlar sportchilarga anketalar tuzadilar. Informasiyaning nisbatan ko'p bo'lishidan qat'i nazar, bu metod ancha-muncha kamchiliklarga ega. Bu subyektiv xarakterdadir. Bu subyektivlik trenerning o'z shogirdini tarbiyalashda, ayniqsa "o'zi yaxshi ko'rgan" o'quvchisiga e'tibor berishida seziladi. Trener baholaydigan vaziyatlardagi boshqa bir subyektivlik o'sha trenerning shaxsiy holatiga, uning ish tajribasiga hozirgi zamon futbol i holatini to'g'ri va chuqur tushunishiga bog'liqdir.

P.V.Ostashevning fikricha, futbolga bo'lgan qobiliyat strukturasida quyidagi asosiy komponentlarni tafovut qilish kerak: jismoniy qobiliyat, bunda o'yinning texnik va taktik priyomlarini hamda o'yin faoliyatida yuksak samaraga erishish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratadigan yuqori darajada ish olib borish uchun funksional qobiliyat, harakatning masofasi, vaqti va kuchi xarakteristikalarini aniq baholay olish; o'yin priyomlarini tez o'rganib olish uchun va ulardan musobaqa sharoitida unumli foydalanish uchun yordam berish, o'yindagi vaziyatlarda voqyealarni oldindan aytib berishga ko'maklashish; o'yindagi aktivlik va tajovuzkorlik; o'zi bajarayotgan mashg'ulotlarni va o'yin faoliyatini to'g'ri baholash hamda ularga tanqidiy nazar bilan yondoshish.

Murabbiylardan anketalar orqali olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, ularning ko'pchiligi (22 kishi) taktik tayyorgarlik; koordinasiya bo'yicha qobiliyat, jismoniy sifatlarni muhim deb hisoblaydilar.

Trenerlarning bir qismi (12 kishi) birinchi o'rinda - koordinasiya bo'yicha qobiliyat, ikkinchi – taktik tayyorgarlik, uchinchi - jismoniy sifatlar turishi kerak, degan fikrni aytadilar.

Murabbiylarning ozchilik qismi (7 kishi) birinchi o'ringa jismoniy sifatlarni, keyin taktik tayyorgarlikni, undan so'ng esa koordinasiya bo'yicha qobiliyatni qo'yadilar.

Anketalarni chunqur o'rganib chinqish shuni ko'rsatdiki, futbol mutaxassislari bu soxada umumiy fikrga ega emaslar. Ularning kupchiligi asosiy e'tiborni taktik tayyorgarlikka va koordinasiya bo'yicha qobiliyatga qaratish kerakligini aytadilar.

Istiqbolli futbolchilar bilan unchalik kuchli bo'lmagan o'yinchilar o'rtasidagi farqni aniqlashdagi asosiy omillarni bilish masalasida trenerlar bilan suhbatlar o'tkazildi, jami 61 kishi bilan suhbat olib borildi. Natija shuni ko'rsatdiki, yosh futbolchining kelajagiga tajriba asosida yoki ba'zan subyektiv baho berilganda, ko'plab trenerlar kelajagi bor yosh futbolchining taktik jihatdan yaxshi fikr yurita oladigan, epchil va yuqori tezlikda yuguradigan (to'p bilan va to'psiz) bo'lishi lozimligini aytishdi. Bundan tashqari, o'sha futbolchi dadil, irodali, tajovuzkor bo'lishi ham kerak. Shunday qilib, har bir trener futbolchining kelajagini aniqlashda har tomonlama tahlil qilib ko'rishi kerak.

O'smirlar o'rtasida terma jamoalarda nomzodlikka yuborilgan 200 ta anketa xarakteristikani tadqiqot qilish shuni ko'rsatdiki, har bir trener o'z shogirdining sport mahorati va kelajagini baholashda turlicha yo'l tutadi. Masalan, tezlik va kuch sifatlarini aniqlash uchun ba'zilar turgan joydan balandlikka sakrash, turgan joydan uch hatlab sakrash va 100 metr

masofaga yugurish o'tkazishsa, boshqa trenerlar asosiy e'tiborni yugurib kelib balandlikka sakrash, turgan joydan uzunlikka sakrash, turgan joydan uch hatlab sakrash, 30 va 60 metr masofaga yugurishga qaratadilar. Kuchni aniqlashda perekladina osilib turgan holatdan tortilish (necha marta) va to'pni oyoq bilan tepilgandan so'ng uzoqqa borib tushishi kabi testlardan foydalanadilar.

Texnik tayyorgarlik masalalari to'pni aniq oshirish, turgan joyda to'pni yerga tushirmasdan o'ynash (harakat davomida va ma'lum vaqt orasida), ustunchalarni aylanib o'tish hamda tezlik, darvozaga aniq to'p tepish kuchiga qarab aniqlanadi. Bunda taktik tayyorgarlikni ko'rsatadigan qandaydir son ko'rsatkichlari bo'lmaydi. Futbolchilar uchun beriladigan har xil xarakteristikalar terma komanda trenerlariga nomzodlarni bir-birlaridan farq qilishda qiyinchilik keltirib chiqaradi, terma komandaga taklif etilgan nomzod haqidagi to'la bo'lmagan ma'lumot esa trenerga shu o'yinchiga to'la baho berdira olmaydi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, amalda kelajagi bor bo'lgan futbolchilarni tanlashda obyektiv bo'lmagan va ishonarli chiqmagan metodlardan hali ham foydalanib turiladi. Futbol mutaxassislarining amaliy tajribalari va to'plangan hujjatlarini analiz qilish bu metodlarning kuchsiz va kuchli tomonlarini aniqlashda shubhasiz katta yordam berdi.

Keyingi yillarda futbolga doir ko'pgina ilmiy maqolalar, metodik ko'rsatmalar va qo'llanmalarda yosh futbolchilarni tanlab olish masalalari keng yoritildi.

Xususan, K. A. Shperling ilmiy asoslagan fikrlar ayniqsa foydalidir.

Avtorning fikricha, hozirgi davrda futbolchi tayyorgarligining butun yo'liga boshqariluvchi yagona proses deb qaramoq kerak. Bolalarning yoshlariga hamda ular oldiga qo'yilgan mashg'ulot maqsadi va vazifalariga ko'ra boshqariluvchi prosesni 3-4 davrga bo'lish mumkin.

Birinchi davr (7-9 yosh) ga dastlabki tayyorgarlik davri deb qaraladi. Bu davrdagi asosiy vazifa bolalarda futbolga bo'lgan qiziqishni uyg'otish va sport mahxorati uchun umumiy zamin yaratishdir. Bu vazifalarni amalga oshirishda, maxsus mashg'ulotlardan tashqari, darsdan keyingi seksiya vaqtidan ham foydalanish kerak.

Bu yoshdagi bolalarni tanlab olishda ba'zi bir qiyinchiliklar ham uchraydi.

a) 7-9 yosh bolalar hali futbolga uncha qiziqmaydilar, ularda qat'iy qaror bo'lmaydi;

b) futbolchi uchun ahamiyatga ega bo'lgan ko'pgina sifatlar hali yaxshi rivoj topmagan, ularni ko'rsatish va baholash mushkul bo'ladi.

Shunga qaramasdan bari bir, shu yoshdagi bolalarni tanlab olish shu vaqtgacha chuqur o'rganilmagan va bu muhim soxa mutaxassislar tomonidan tadqiqot qilinmoqda.

Ikkinchi davr (10-12 yosh) boshlang'ich ixtisoslashish davridir. Bu yosh ham biologik, ham pedagogik jihatdan futbolchilarni tanlab ola boshlashning dastlabki eng muhim davri hisoblanadi. Bolalardagi qiziqish endi anchagina kuchaygan, ancha o'zini tutib olgan, jismoniy va texnik-taktik ko'rsatkichlari o'sa boshlagan bo'ladi. Mana shu yoshda tanlab olish va gruppalarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Gruppalardagi bolalar ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqni bilsa hamda

tengqur futbolchilar gruppalarini to'g'ri tashkil etishda o'qituvchi har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlariga qarab ta'lim bera oladi.

Uchinchi davr (13-16 yosh) ixtisosni chuqur o'zlashtiriladigan davrdir. Bu yoshdagi bolalarni tanlab olishda ularning yoshiga hamda biologik xususiyatlariga ahamiyat berish lozim. Bolalar bu davrda zo'r berib jinsiy balog'atga yeta boshlaydilar va ularda biologik rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari paydo bo'la boshlaydi. Bu davrda har bir bolaning natijalariga baho qo'yish yo'li bilan o'yinning qiziqarli mashqlaridan foydalanish lozim. Bu esa o'z navbatida komanda va ayrim zvenolarni tashkil etishda ijobiy rol o'ynaydi. mashg'ulotlar prosessini ham yuqorida aytib o'tilganlar asosida olib borish kerak.

To'rtinchi davr (16 yosh va undan katta) sportda takomillashish davridir, bunda futbolchilar o'smirlar va katta yoshdagi komandalarga tanlab olinadi. Bu davr grupp va komandalarni tashkil etish hamda mashg'ulotlarni olib borishda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tanlab olish sistemasini quyidagi sxema bo'yicha amalga oshirish mumkin.

Dastlabki ta'lim davrida turli ko'rsatkichlar bo'yicha, chunonchi, trenirovka qilgisi kelmaslik, nagruzkalarni ko'tara olmaslik, o'qishga layoqatsizlik tufayli ba'zi bolalar ketib qolishadi. Natijalar testlar bilan o'lchab boriladi. Birinchi yilda va keyingi yillarda gruppalarda olib qolingani o'smirlar quyidagi sxema bo'yicha testlardan o'tadilar.

Tayyorgarlik ishlarini yaxshi o'ylab tashkil etilsa, futbol bilan shug'ullanish uchun o'quvchilarni ko'plab jalb etish mumkin. Dastlab bolalarni maktabga jalb qilish va ommaviy ravishda kelishlari uchun tadbirlar ishlab chiqish kerak. Bu nihoyatda muhim va mas'uliyatli ishdur.

O'quv yili boshlanishidan 1-2 oy ilgari radioda, musobaqa davrida stadionda, umumta'lim maktablarida, JEK larda, televideniya, gazetalarda sport maktabiga qabul qilish haqida xabarlar berib boriladi. Bu soxada umumta'lim maktablarining o'qituvchilari katta yordam beradilar.

Lekin tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalarni ommaviy ravishda maktabga jalb qilish uchun tanlab olishdan 4-5 kun avval trenerlar maktabga kelib o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazsalar, futbol haqida gapirib, unga qiziqirsalar juda yaxshi bo'ladi.

Qabul imtihonlari topshirish uchun o'quvchilar sog'liqlari haqida maktab vrachidan spravka olib kelishlari lozim, chunki sport maktabida bir vaqtning o'zida ko'plab o'quvchilarni dispanserizasiya ko'rigidan o'tkazish imkoni bo'lmaydi. Sog'lig'ida o'zgarishlar bo'lgan bolalar garchand juda qobiliyatli bo'lsalar ham, keyinchalik futbolni tashlab ketishga majbur bo'ladilar.

Bolalarni tanlab olishdan oldin kerak bo'ladigan asbob-anjomlar, mashg'ulot o'tkaziladigan joy (sinov mashg'ulotlari uchun stansiyalar va o'yin maydonchalari) taxt qilib qo'yilishi lozim. Ko'rsatilgan natijalarni yozib borish uchun protokollar tayyorlanadi va son jihatidan yetarlicha qabul komissiyasi tuziladi.

Tanlab olish jarayonida ikkita asosiy vazifani hal qilish kerak bo'ladi:

a) bolaning futbol bo'limiga kirishi haqida xulosa yozish va uning kelajakda yaxshi o'qishi mumkinligi haqida fikr aytish kerak;

b) o'qishga qabul qilingan bolalar orasidan layoqatli o'quvchilarni ajratib olish va ancha qobiliyatsiz bolalarni chiqarib yuborishadi. Shuning uchun ham dastlabki tanlab olish uzoq muddatga mo'ljallanadi, chunki trenirovka ta'sirida bolalar qobiliyati o'zgarib, rivojlanib boradi. Tanlab olish prosessi ikki yilga chuzilishi mumkin, shu davr ichida yosh futbolchining asosiy sifati dinamikasini kuzatib borish zarur. Testlar bo'yicha tekshirishlar yiliga kamida 2 marta o'tkazilishi lozim. Kontrol normativlarning o'quv yili boshidagi va oxiridagi natijalarini solishtirib ko'rish ana shu natijalarning o'sib borishini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar va eksperimentlar natijalariga ko'ra ko'rsatkichlar kompleksi ishlab chiqildi, undan dastlabki tanlab olishda foydalanish mumkin. Unga 7 test va ko'rsatkichlar kiradi:

1. Yugurish tezligi ko'p jihatdan muhim tug'ma va kompensasiyalanmaydigan sifat hisoblanadi. Tezkorlik sifatlariga baho berish uchun 30 metr masofaga yugurtirish tavsiya etiladi.

2. Bolalarning qobiliyatini rivojlantirishda tezkorlik va kuchlilik imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi, uni yugurib kelib ikkala oyoq bilan deysinib qanchalik balandlikka sakrashga ko'ra baholash mumkin.

3. Chaqqonlik ham juda muhim bo'lib, deyarli kompensasiyalanmaydi, buning ustiga 12-13 yoshdan keyin qiyinlik bilan rivojlanadi. chaqqonlik ko'p jihatdan keyinchalik texnik mahoratning o'sishiga olib boradi. Bolalarni tanlab olishda ham umumiy, ham alohida chaqqonlikni hisobga olish kerak. Umumiy chaqqonlikni aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan testlar kompleksidan foydalanish tavsiya etiladi.

4. Maxsus koordinasiya to'p bilan dribling (doirani 5 marta aylanib o'tish) qilish orqali baholanadi.

5. Eng asosiy ko'rsatkichlardan biri "o'yindagi tajovuzkorlik va jangovar sifatlar" dir.

Yaxshi o'ynab kontrol sinovlarni bajarish natijalari asosida jismoniy sifatlar o'sishining individual sur'ati mos kelishi bolaning o'yinga qobiliyati borligini ko'rsatadi.

Pedagogik kuzatishlar va kontrol tekshirishlar layoqatli va mehnatcevap bolalarni tanlab olishda o'ziga xos mezon bo'lib xizmat qiladi. Tabiiyki, gruppalardan ozod etilgan bolalar kollektivdan ketishdan qattiq eziladilar, shuning uchun trenerlar nihoyatda ziyrak bo'lishlari va bolaga shirin gapirib, ko'nglini o'ksitmasliklari kerak. Trener bolaga qobiliyatiga yarasha sportning boshqa biror turini tanlashida yordam berishi zarur.

Futbol mashg'ulotlarini endigina boshlayotgan bolalarning jismoniy tayyorgarligi holatini tekshirish to'rtta maxsus mashqlar (1-4), yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini tekshirish esa beshta test orqali (5-9) bajarilishi kerak.

1. Yuqori startdan 30 m ga yugurish. Baqt oddiy prujinali sekundomerda o'lchanadi. 2 marta yugurishga ruxsat etiladi, protokolga eng yaxshi natija yoziladi.

2. Ikkala oyoqda depsinib turgan joydan balandga sakrash. 2 marta sakrashga ruxsat etiladi - protokolga eng yaxshi natija yoziladi.

3. Ikkala oyoqda depsinib turgan joydan uzunlikka sakrash. 2 marta sakrashga ruxsat etiladi. Protokolga eng yaxshi natija yoziladi.

4. Umumiy chidamlilikni baholash uchun 300 m ga yugurish.
5. Kuchli oyoq bilan to'pni uzoqqa tepish, ikki urinishning yaxshisi hisobga olinadi.
6. "Charm "to'p" klubining texnika uchun testi. Jarima maydonining hap ikki burchagidan 2 urinib kurishga ruhsat beriladi, o'rtacha natija yoziladi.
7. Maxsus chaqqonlik testi. To'pni orasi 5 m dan bo'lgan uchta tusiq orasidan o'tkazib, keyin opqaga qaytiladi, ikki marta urinib kurishning yaxshisi hisobga yoziladi.
8. Kontrol o'yinlarda yosh futbolchining tez fikr yuritishi 3 ta trener tomonidan baholanadi.
9. Futbolchining o'yin jarayonidagi asosiy hapakatlariga xarakteristika berish (undagi kamchiliklar va ijobiy hislatlar).

Testlar natijalari hamda ularning baholari ko'rsatilgan. Ballar yig'indisining 32 bo'lishi yosh futbolchini o'qishga olish uchun asos bo'la oladi vaqtni keyingi maxsus sinfga o'tkaziladi. Yosh futbolchi mahopatining oshib borish darajasi quyidagicha aniqlanadi: o'quv yili so'nggida (2-3 yil) ko'rsatilgan kontrol natijalardan o'quv yili boshlanishidagi natijalar ayiriladi.

P.V. Ostashhev o'rgatish davomida ko'pchilik ichidan eng umidli o'yinchilarni tanlab olish uchun quyidagi savollarga javob berish lozimligini aytadi.

Jismoniy qobiliyatni rivojlantirishda imkoniyatlarning qandayligi. Har bir yosh futbolchi o'smir yoshiga yetgunga qadap qanchalik ishchanlik darajasiga yetishi mumkinligi;

2. Har bir yosh o'yinchi o'rgatish davomida o'z imkoniyatlari, qobiliyatlaridan tez vaqt ichida qanday foydalanishi mumkinligi;
3. Yosh futbolchi o'yinlar davomida olgan bilimi, mahorati, malakasidan musobaqalar sharoitidagi texnik va taktik harakatlarda foydalanadimi;
4. O'smirlarning voqyealarni oldindan seza olish, do'stlari va raqiblarining hatti-harakatlarini bila olish qobiliyatlari qay darajada;
5. Har bir o'smir jismoniy va psixologik nagruzkalarni uddalay olishi va ayniqsa, ulardan so'ng tiklana olish qobiliyatlari bilan qanday funksional imkoniyatlarni qo'lga kiritishi mumkin;
6. O'smir shuhratparastmi. Futbolga qattiq qiziqadimi, qarori qat'iymi. Shaxsning psixofiziologik sifatlari rivojlanishi qanday;
7. Mashg'ulot va musobaqalar davomida o'smirning turli xildagi tasodifiy voqyealarga qarshi kurashish qobiliyati qanchalik rivojlangan va u takomillashishi mumkinmi;
8. O'smirda o'quv va o'yin faoliyatida o'z-o'zini tanqid qilish qobiliyati o'sib boradimi;
9. O'smirning bilim, mahopat, malaka olishga bo'lgan qiziqishi qay darajada;
10. O'smirlarning hapakat aktivligi va mashg'ulot hamda musobaqalar davomidagi tajovuzkorligi qanday;
11. O'smirning jangovarligi, g'alaba uchun ildam hapakat qilishi; hap qanday raqib bilan so'nggi minutigacha kurasha olish obilyatlari qay darajada;

O'smirlarning shaxsiy xususiyatlariga futbolda erishadigan yaxshi natijalari asosida baho berish lozim. Bolalarni tanlab olish jarayonida hap bir o'smirning shaxs sifatida qanday o'zgarib borishini e'tiborga olish kerak. Kelajagi bor yosh futbolchilar konkurs sinovlari, ularning salomatligi haqidagi kompleks baholar, organlar va sistemalarning funksional holati natijalari asosida tanlab olinadi. Bunda futbolchining jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi darajasini uning koordinasiya qobiliyatlarini, analizator va funksional sistemalari holatini, shuningdek, psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish shart. Tanlab olish ko'rsatkichlari sifatida yosh futbolchining qanday o'ynayotgani haqidagi ma'lumotlardan foydalanish lozim. O'quvchilarni tanlab olishda kontrol o'yinlarni hisobga olgan holda ma'lum programma bo'yicha nazorat sinovlar utkaziladi. Besh balli sistema asosida baholadigan yosh futbolchilarning test bo'yicha sinovlari natijalari va uch kontrol o'yin prosessidagi pedagogik kuzatishlar ma'lumotlari protokolga yozib boriladi. Yangi qabul qilinayotganlarga olgan baholari aytiladi.

1.3. Futbolda futbolchilarni kompleks nazorat qilish masalalari.

Kompleks tekshirishdan maqsad -har bir sportchining tayyorgarlik darajasini har tomonlama tekshirishdan iborat. Bunday tekshirishlarni bosqichli kompleksli tekshirishda o'tkaziladi: futbolchilarning jismoniy va ruhiy ko'rsatkichlari, texnik-taktik mahorati darajasi, musobaqa faoliyatining sifat va son xarakteristikasi, hisobga olinadi.

Kompleks tekshirish programmasida yosh futbolchi tayyorgarligiga har tomonlama baho beriladi hamda talab qilinadigan informasiyani olish uchun minimum testlar albatta ko'zda tutiladi.

M.A. Godik fikricha, yosh futbolchilar tayyorgarligini kompleks tekshirish programmasi o'ziga xos qatop xususiyatlarga ega bo'ladi. Birinchidan, uning mazmuni o'yinchining barcha harakat va psixik sifatlarini imkoni boricha aks ettirishi kerak. Ikkinchidan, tekshirish natijalari faqatgina nagruzkalarni planlashtirish uchun emas, balki tanlab olish, kelajagi bor iste'dodli yoshlarni aniqlash uchun ham hisobga olinadi.

Kompleks tekshirish uchun testlar tanlab olishda quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

- o'lchash muolajalarini bir standartga solishni ta'minlash;

- yuqori darajaga va aniq informasiyaga ega bo'lgan testlardan foydalanish:

- testlar orqali yuqori natijalarga erishishni ta'minlash;

- testlarda yuqori ko'rsatkichlarga erishish sistemasiga ega bo'lish;

Jismoniy tayyorgarlikni tekshirish uchun yuqorida bayon etilgan shartlardan tashqari yana ularning ikkitasini bajarish majburiydir;

- texnikasi oson bo'lgan va natijalarga deyarli ta'sir etmaydigan testlardan foydalanish lozim;

- testlarni shu qadar yaxshi o'zlashtirish kerakki, ularni o'tkazishda asosiy e'tibor harakatni texnik jihatdan to'g'ri bajarishga emas, balki maksimal natijani qo'lga kiritishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Yuqorida bayon etilgan shart-sharoitlarni bajarish majburiydir, biroq testni o'tkazish jarayonida normativ topshiruvchilar uchun shunday

ruhiy kayfiyat yaratish kerakki, toki ular bunday sharoitlarda o'zlarining barcha harakat imkoniyatlaridan keng foydalanadigan bo'lsinlar. Bunday vaziyatda normativ qabul qilishni musobaqa tarzida olib borish maqsadga muvofiqdir, chunki bunda sportchilar o'zlarining eng yuqori natijalarini ko'rsatishga harakat qiladilar. Futbolda ko'plab testlar ishlatiladi, lekin ularning hammasi ham axborot uchun va ishonch maqsadlarida tekshirib ko'rilmagan.

Axborot uchun berilgan ma'lumotlar ma'lum sifat ko'rsatkichlari uchun beriladigan baholarning aniq bo'lishiga xizmat qiladi. Masalan, maxsus chaqqirlik sifatlarini aniqlash maqsadida to'pni 20 metr masofada ustunchalarni katta tezlikda aylanib o'tish va 16 metr masofadan to'pni darvozaga tepishni axborot uchun qabul qilishadigan bo'lsak, turgan joyda va harakat davomida to'pni yerga tushirmasdan o'ynash natijalari axborot uchun beriladigan ma'lumotlar uchun kerak bo'lmaydi.

Testning axborot uchun kerak bo'lgan materiallari testni qabul qilish va o'yin natijalarini taqqoslab ko'rish yo'li bilan aniqlanadi. Bir sportchining standart sharoitlarda bir xil mashqlarni ketma-ket bajarishi va takrorlanayotgan natijalarning bir xil bo'lishi testlarning ishonchli bo'lishini ko'rsatadi.

II BOB. YOSH FUTBOLCHILARNI TEXNIK – TAKTIK

TAYYORGARLIGINI TARBIYALASH

2.1.Turli yoshlarda sportchilarni organizm

xususiyatlarini o'rganish.

Bolalar va o'smirlar organizmi katta yoshdagi kishilar organizmidan jiddiy ravishda farq qiladi. Bolalar va o'smirlar zo'r berib o'sib, rivojlanadilar. Bu davrda ularda odatlar shakllanadi, bilim oladilar, sportning biror turi bilan shug'ullanadilar va malaka orttira boshlaydilar. Bola qanchalik yosh bo'lsa, unda o'sish va rivojlanish prosessi shunchalik tez o'tadi. Nerv sistemasining shakllanishi harakat faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi, muskul sistemasi o'sishi esa nerv faoliyatining takomillashishiga yordam beradi.

Har bir bolaning rivojlanish xususiyati o'ziga xos bo'ladi, biroq ko'pchilik bolalar yoshlariga yarasha o'sib, rivojlanadilar. Agar 7 yoshdan 11-12 yoshgacha bo'lgan davrni vazmin bir davr deyish mumkin bo'lsa, 13 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlik davri kishi hayotining boshqa barcha davrlaridan tubdan farq qiladi. Bu davrda organizmdagi barcha fiziologik sistemalar zo'r berib o'zgaradi, o'smirning psixikasi va hulqi o'zgara boshlaydi. Bu yoshda ota-onadan o'tgan sifatlar hamda tashqi muhit ta'sirida bolaning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'la boshlaydi.

Bolalar bilan ishlash tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'qish boshlanishidagi sport natijalarining tez o'sishi kelajakdagi yuqori natijalarga kafil bo'la olmaydi. Shunday hodisalar ham bo'ladiki, sport bilan aktiv shug'ullangan bolalar keyinchalik kattapoq bo'lganlarida doim

mashg'ulotlarga qatnashishlari natijasida ularda sport ko'rsatkichlari dinamikasi yaxshi bo'ladi.

Bolalik yoshida natijalarning tez o'sishi aksari "biologik yosh" tushunchasi bilan bog'liqdir. Ma'lum yoshga borib, masalan 14 yoshga yetganda bolalarda morfologik va funksional o'sishlari darajasi turlicha bo'lishi mumkin.

Biologik yoshda skeletning ba'zi suyaklari suyaklanishi, ikkilamchi jinsiy belgilarining rivojlanishi va boshqa jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari ko'zda tutiladi. Bolalarda gavdaning va vaznning o'sishi hayotning birinchi yiliga hamda balog'at davriga (12-14 yosh) to'g'ri keladi. Harakat sifatlarining o'sish darajasi sport faoliyatidagi muvaffaqiyatlarga ta'sir qiladi. Shu sababli, harakat va psixofiziologik funksiyalarning yetilish dinamikasi nihoyatda qiziqarlidir.

Bola 8--10 yoshga yetgandan so'ng barcha muskulatura zo'r berib rivojlana boshlaydi, 13-14 yoshgacha bulgan davr esa muskul sistemasi va aktiv harakat funksiyalarining takomillashishi davri hisoblanadi. V.P. Filin fikricha (1974) o'smirlik va yoshlik yillarida, ayniqsa 13-14 yoshgacha, muskul massasi juda tez o'sadi, bu esa kuch sifatlarining oshishiga ijobiy ta'sir qiladi.

7 dan 10 yoshgacha bo'lgan davrda bolalarning harakatlari chaqqon, egiluvchan, juda ham chidamli bo'la boradilar. 11--12 yoshda bolalar ancha ishchan bo'ladilar.

Psixofiziologik funksiyalar asosan 13--14 yoshlarga borib shakllanib bo'ladi. A.P. Laptevning fikricha, 11--12 yoshda psixofiziologik funksiyalar darajasi uncha yuqori bo'lmaydi, shuning uchun ham yosh sportchilar

harakatlarni tez va aniq bajara olmaydilar. 12--13 yoshda o'smir murakkab harakatlarni o'rganadigan bo'lib qoladi, harakat malakalarini egallaydi, shunda ham 14--15 yoshli bolalardan ko'ra yaxshiroq bajaradigan bo'ladilar.

Bolalar va o'smirlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ular bir xilda rivojlanmaydilar, yetilishda va harakat funksiyalarida o'ziga xos farq bo'ladi.

Masalan, 16-18 yoshda yigitcha juda baquvvat, chidamli bo'ladi, 13-14 yoshda chaqqon bo'lib, harakatlarni tez bajaradi, yangi va hatto murakkab bo'lgan harakatlarni tez o'rganib oladi, qo'l va oyoq harakatlari uyg'un bo'ladi, holbuki, chaqqonlikka va egiluvchanlikka 9-10 yoshgacha o'rganiladi.

Bu masalani maxsus o'rgangan ko'pgina olimlar bolalarga jismoniy tarbiya berishning dastlabki davrlarida ularning uyg'un rivojlanishi uchun turli mashqlardan foydalanishni tavsiya etadilar, muskullarning ma'lum gruppalariga bir tomonlama zo'r keltiradigan mashqlardan voz kechish kerakligini ham aytadilar.

Bola organizmi markaziy nerv sistemasining doimiy ta'siri, atrof muhit bilan uzluksiz aloqada bo'lib turishi tufayli o'sish va rivojlanishda davom etadi. 8-10 yoshli bolalarda nerv sistemasining anatomik jihatdan o'sishi hali tugallanmagan bo'ladi, shu sababli bu tabiiyki, bolaning o'z fikrlarini bayon qilishiga, hulqiga, psixikasiga ta'sir qiladi. Bunday bolalar nihoyatda ta'sirchan bo'ladilar, ayrim sport elementlarini o'rganishda uzoq vaqt diqqat qilolmaydilar. 8-10 yashar bolalarda nerv prosesslari juda harakatchan bo'ladi. Shunda ham ko'zg'alish prosesslari

tormozlanish prosesslaridan ustun bo'ladi. 10-12 yoshga borib, bolalarda tormozlanish prosesslari kuchi ortadi, o'z his-tuyg'ularini nazorat qiladigan bo'lib qoladi, birinchi va ikkinchi signal sistemasining funksional imkoniyatlari kengayadi, differensirovka qobiliyati ortadi: muskulni sezish qobiliyati kuchayadi, harakat malakalari o'z-o'zidan bajariladigan bo'ladi, bola nozik harakatlar qiladigan bo'ladi. Bu yoshga kelib, nerv sistemasi turlari uzil-kesil aniqlanadi va diqqat ortadi.

13-15 yoshda markaziy nerv sistemasining funksional imkoniyatlari anchagina ortadi. Bular hammasi shu davrda nihoyatda yaxshi rivojlanayotgan harakat qobiliyatlarini takomillashtirishga sharoit yaratadi. Bu yoshga kelib o'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qila boshlaydi.

Balog'atga yetish davrida (13-15 yosh) markaziy nerv sistemasining qo'zg'aluvchanligi ortadi, ichki tormozlanishning barcha turlari bo'shashadi. O'g'il bolalarda jismoniy va aqliy mehnatdan so'ng charchash holati ortadi, ular ortiqcha ta'sirlanuvchan bo'lib qoladilar, o'zlarining jismoniy va psixologik imkoniyatlarini hisobga olmagan holda tez harakat qilgilari keladi.

Ma'lumki, 8-15 yashar bolalarning yuragi vazni 96 dan 200 gramm-gacha bo'ladi, bu gavda vaznining taxminan 0,44-0,48% iga tengdir. Bolalar va o'smirlar yuragi esa kichkina bo'ladi.

Shunday qilib, bolalarda yurak har tomonlama rivojlanadi, lekin bir tekis o'smaydi, uzunasiga ko'proq tez o'sadi, keyinchalik eniga va qalinlikka qarab o'sadi.

Tinch holatda tomir minutiga 76-90 marta uradi, arterial bosim simob ustunining 100/70 mm da bo'ladi, jismoniy nagruzkalar ta'sirida tomir urishi minutiga 185 gacha ortadi.

7-8 yoshga kelib yurak apparatining innervation o'sishi to'xtaydi, lekin yurak muskuli rivojlanishda davom etadi. Bolalar jismoniy mashqlar qilgan paytda tez charchab qoladilar va og'ir hamda uzoq davom etadigan nagruzkalarni uddalay olmaydilar, chunki qonning minutlik hajmi yurak qisqarishi tezlashishi hisobiga ortadi. 10-13 yashar bolalarda yurak faoliyatidagi shartli reflektor o'zgarishlar 14-17 yoshli bolalar va kattalardagi kabi sodir bo'ladi. Yurak muskullari qisqarishi kuchi va qonning zarb hajmi ortadi, nafas olish va tomir urishi ancha siyraklashadi.

Tinch holatda yurak o'rta hisobda o'rtacha 1 minutda 70 marta uradi, arterial bosim simob ustunida 110/70 mm bo'ladi. Mashg'ulotlar paytida tomir urishi minutiga 200 zarbga yetadi. Bolalar va o'smirlarda yurak ishi hali uncha takomillashmagan, shartli reflekslarning yurak-tomir sistemasiga ta'siri hali yetarli bo'lmaydi.

O'pkaning hayotiy sig'imi 17 yoshga borib 4000 ml ga yetadi; bu ko'rsatkich 7 yoshda 1400 ml; 12-14 yoshda esa 2200 ml bo'ladi. Shunday qilib, 16-17 yashar bolalarda yurak-tomir sistemasi ancha takomillashadi: yurak hajmi va massasi, qonning kislorod hajmi, kislorodga bo'lgan ehtiyoj huddi katta kishilardagidek bo'ladi. Shu bilan birga harakat va vegetativ funksiyalar o'rtasida muvofiqlik yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun yosh sportchilarni tayyorlashda nagruzkalarni aniq taqsimlab, ularni asta-sekin oshirib borish zarur.

Suyak-muskul sistemasi. Bolalarning suyaklari katta yoshdagi kishilarnikiga qaraganda yumshoq va salga qiyshayadigan bo'ladi. Suyak sistemasida chuqur o'zgarishlar sodir bo'ladi: umurtqa pog'onasi qayishqoqligi shakllanadi. 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda umurtqa suyagi hali mustahkam bo'lmaydi va juda qayishqoq bo'ladi. Shu bilan birga u juda yumshoq bo'lib, noto'g'ri vaziyat natijasida qiyshayib qolishi mumkin. 7 yoshga borib umurtqa suyagining bo'yin va ko'krak sohalaridagi qiyshaymalari turg'un bo'lib qoladi. 12 yoshga yetganda bel sohasida ham shunday bo'ladi. Umurtqa pog'onasi 18-25 yoshlarga borib suyaklanib bo'ladi. 14 yoshda esa dumg'aza suyagi o'sishi tugaydi.

Shuni unutmaslik kerakki, yosh ulg'aygan sari muskullar hajmi strukturasi, ximiyaviy tarkibi va funksiyasi o'zgara boradi. 7 yoshda muskullarda katta o'zgarishlar sodir bo'ladi, birinchi navbatda muskul tolalari qalinlashadi. 8-10 yoshda bolalarda muskul sistemasi hali yetarli rivojlanmagan bo'ladi. Muskul massasi vazni gavda vaznining 27,2 % ini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich o'smirlarda (15 yosh) 32,6, yoshlarda esa 44,2 ga teng bo'ladi. 7-12 yoshli bolalarda gavda massasining yillik o'sishi 5-7 kg ni tashkil etadi.

7-9 yoshdan to 10-12 yoshgacha qo'llar muskuli kuchi oyoqlarnikiga nisbatan jadalroq o'sadi. Bu davrda muskul sistemasi va harakat funksiyalari takomillashadi. Muskul massasi o'sishi bilan birga harakatlar uyg'unligi ancha yaxshilanadi.

14 yoshga borib muskul va paylar apparati rivojlanishi kattalarnikiga yaqinlashadi. 15 yoshda harakat apparati strukturasi to'la yetiladi.

2.2. Futbolchilarni tarbiyalashda, o'quv-mashg'ulot ishlarini tashkillashtirish.

Chet ellarda va mamlakatimizda to'plangan ilg'or tajribalarni umumlashtirish shuni ko'rsatdiki, tayyorgarlikning boshlang'ich davridagi o'quv mashg'uloti ishlari quyidagi prinsiplar asosida olib borilishi lozim.

1. O'quv-trenirovka mashg'ulotlaridan tashqari vaqtda bolalarni faqat o'ynab o'rganolmayotgan yo bo'lmasa qo'pol xatolar qilib o'rganayotgan texnik priyomlar va taktik harakatlar bilan shug'ullantirish lozim. O'yinda kam uchraydigan vaziyatlarni, biroq muhim biomexanika asosini tashkil etuvchi harakatlarni alohida-alohida o'rgatiladi.

2. Taktik va texnik tayyorgarlik bo'yicha o'quv materiallarini bosqichma-bosqich emas, balki spiralsimon o'rgatish kerak. Bunda albatta quyidagi vazifalar qo'yilishi lozim:

a) futbolchilarning texnik priyomlari va taktik harakatlarining turli-tumanligi haqida keng ko'lamda tushuncha berish;

b) eng muhim texnik priyomlar va taktik harakatlarni mahorat va malaka darajasiga ko'tarish:

v) yosh futbolchilarni tayyorlashning dastlabki bosqichida o'yin o'quv mashg'ulotlarining samarali vositasidir. Falaba qozonish ilmi bolalikdan o'rgatiladi.

Avtorlar fikricha, yosh futbolchilarning harakat aktivligini oshirishda va ularning har tomonlama tayyorlanishida quyidagilarni amalga oshirish zarur;

- o'yin vaqtini kamaytirish;

- o'ynaladigan ochkolar sonini oshirish, kuniga bir nechtadan o'yin o'tkazish;

- komandadagi o'yinchilar sonini kamaytirish;
- o'yin maydonini kamaytirish;
- raqiblarni tez-tez almashtirib turish;
- musobaqalarni blis-turnir shaklida (tez) o'tkazish.

Ishga bunday yondoshish bolalarga o'yin vaziyatlarida kerak bo'ladigan nostandart holatdagi maxsus mashqlarni katta hajmda o'rganishga olib keladi. Afsuski, bolalar va o'smirlar sport maktablari uchun tuzilgan programmalarda standart holatlarga ko'proq o'rin ajratilgan, bunda boshlovchilar to'pni olib yurish, to'xtatish, oshirish, turli holatlarda to'p tepishnigina o'rganadilar (15-jadval).

Analiz bolalar va usmirlarni futbolga o'rgatishdagi mavjud ishlarning uyg'un emasligini yaqqol ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, kamida uch omilni bir-biriga moslamoq kerak. Bular standart mashqlar; o'yin sharoitidagi mashqlar; o'tkazilgan o'yinlar soni.

Bular hammasi yoshni hisobga olgan holda o'tkaziladi. Maxcyc sinflar o'quvchilari uchun o'quv mashg'ulotlari planlashtirish futbol bo'yicha OPM BO'SM uchun tuzilgan programma asosida o'tkaziladi.

5-7 sinflar o'quvchilari mashg'ulotlarda o'rta hisobda haftasiga 20 soatgacha qatnashadilar, keyinchalik nagruzkalar 24 soatgacha oshiriladi. Shunday qilib, yosh futbolchilar kuniga 3-4 soatdan mashq qiladilar.

Maktab jismoniy tarbiya o'qituvchisi darslarni o'quvchilar olgan nagruzkalarni hisobga olgan holda hamda shu kuni o'tiladigan mashg'ulotlarni hisobga olgan holda o'tkazishi kerak. Haftalik mikrosikl

mashg'ulotlarini planlashtirishda jismoniy sifatlar ko'rsatkichini hisobga olinadi. Bunda ko'p kuch va chidamlilik talab etuvchi tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini o'rgatish qiyinroq bo'ladi.

Ma'lumki, 10-14 yashar bolalarda dastlabki ikki sifat tezroq rivojlanadi. Shu sababli, hafta kunlari uchun mashg'ulotlar quyidagi sxemaga mo'ljallangan bo'lishi lozim: birinchi mashg'ulotlar texnik-taktik mashqlar, keyingisida tezkorlik va chaqqonlikni oshirishga, undan keyingisida esa tezkorlikka chidamlilik; kuch va umumiy chidamlilikni oshirishga qaratiladi.

6-10 maxsus sinflar uchun o'quv soatlarini taqsim qilishning yillik jadvalini tuzishda futbol bo'yicha OTM BO'SM programmasi uchun beshinchi o'quv yili o'quvchilariga mo'ljallangan o'quv mashg'uloti jadvali asosi qilib olinadi. Bunda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari hajmining muttasil o'sib borishini, ular urtasidagi farqning tobora maxsus jismoniy tayyorgarlik tomoni oshishini va umumiy jismoniy tayyorgarlik solishtirma og'irligining kamayishini hisobga olish lozim.

Ko'p yillik mashg'ulotlar jarayonida nagruzkalar hajmi va jadalligi tinmay oshib boradi. 6-8 sinflarda nagruzkalar hajmi, 9-10 sinflarda esa ularning jadallashishi ortadi.

Bolalar va o'smirlar futboli nazariya va amaliyotida tavsiya etilayotgan mikrosikllar barcha davrlarda mos keladigan yillik plan uchun universaldir. Lekin bunda tayyorgarlik turlari uchun vosita va vaqtzni taqqoslash prosenti o'zgaradi, xolos. 5-b-maxsus sinflar o'quvchilari uchun umumiy jismoniy tayyorgarlik davridagi vaqt va 25% ga teng bo'lsa,

maxsus jismoniy tayyorgarlikka 25%, texnik tayyorgarlikka 25%, taktik tayyorgarlikka esa 20% to'g'ri keladi.

advaldagi ma'lumotlarni analiz qilish shuni ko'rsatdiki, tayyorgarlik turlari uchun vaqt va sifat hajmi o'rgatish yillari bo'yicha texnik-taktik tomonga qarab o'zgarib boradi. U 9-10-sinflarda tayyorgarlik davrining 60 % ini, musobaqa davrining esa 75 % ini tashkil etadi.

Yillar bo'yicha nagruzklarning bunday taqsimlanishini samarali deb hisoblash mumkin, chunki bunday fikrni ko'plab mutaxassislar (anketa savollariga 36 kishi javob bergan), jumladan, xizmat ko'rsatgan sport ustalari N. Simonyan, G. Kachalin, V. Ponedelnik (1979) lar qo'llab-quvvatlaganlar.

O'zbek futbolchilari sport mahorati darajasining bundan keyingi rivojlanib borishi bolalar va o'smirlar futbolining o'sishi bilan chamabarchas bog'liqdir. Shu sababli, mamlakatimizda bolalar va o'smirlar futbolini yanada rivojlantirishga qaratilgan qatop tadbirlar orasida futbol bo'yicha maxsus sinflar tashkil etish alohida o'rin tutadi.

Maxsus sinflarga o'quvchilarni tanlab olish, gruppalarni tashkil etish, o'qishning unumli bo'lishini ta'minlash va musobaqalarda ishtirok etish - bularning bari uzoq proress bo'lib, trenerdan maktabda o'qish davomida olingan barcha natijalarni chuqur taxlil qilishni talab etadi. Murabbiyning o'quvchining layoqatliligiga va qobiliyatiga har tomonlama aniq baho berishi o'quvchi kelajagining samarali bo'lishiga, mahoratining takomillashishiga va musobaqalarda yaxshi qatnashishiga yordam beradi.

Ma'lumki, tanlab olishning eng yaxshi ma'lumotlariga asoslangan metod ham to'liq va muvaffaqiyatli bo'lmasligi mumkin. Yosh

futbolchilarning talanti va qobiliyati kundalik mashg'ulotlar davomida o'sib boradi va takomillashadi. Yosh futbolchi sport mahoratining oshib borishi mashg'ulot prosessining metodik jihatdan qanchalik to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq bo'ladi.

2.3. Futbolchilarni qobiliyatlarini bilishda nazorat mashqlarni ahamiyati.

Trener pedagogik kuzatishlar va maxsus kontrol mashqlar natijalarini analiz qilish yo'li bilan o'quvchilarning qobiliyati haqida kerakli ma'lumot oladi.

O'yinlar davomida pedagogik kuzatishlar ma'lumotlarini kontrol sinovlar natijalari bilan taqqoslab ko'rib yosh futbolchilarning qobiliyati darajasini aniqlash mumkin. Bundan tashqari, baholashning bu usuli trenerga jismoniy sifatlarning o'sishi hamda texnik va taktik ko'rsatkichlarni aniqlashga yordam beradi. Ana shu va boshqa obyektiv ma'lumot asosida ta'lim olayotgan bolalarni kelajagini hisobga olib, gruppalariga bo'lish mumkin.

Nazorat sinovlar yiliga ikki marta: sentyabr va iyul oylarida o'tkazilishi lozim.

Futbolchilarni kelajagini hisobga olgan holda gruppalariga ajratishni davom ettirish ta'lim berish davrida hamda maxsus sinflarda olib boriladi. Agar tanlab qilishning maqsadi qobiliyatli va kelajagi bor yosh futbolchilarni aniqlashdan iborat bo'lsa, keyinchalik bundan yana ham muhim vazifa qo'yiladi: mashg'ulotlarning metodlari va vositalaridan

foydalangan holda futbolchilarni viloyat, respublika, mamlakat terma jamoalariga tayyorlashga kirishiladi.

Yosh futbolchilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligi darajasi rivojlanishiga baho berish uchun quyidagi kontrol mashqlardan foydalaniladi:

- yuqori startdan 30 m ga yugurish;
- 30 m ga to'p bilan yugurish;
- turgan joydan balandlikka sakrash;
- maxsus koordinasiya uchun "sakkizlik" deb nomlangan sinovdan o'tish;
- diqqatni taqsimlash va to'pni olib yurish texnikasi uchun test;
- to'pni tepgandan keyin uzoqqa borib tushishi to'p bilan 5 x 30 m ga yugurish.

Bu sohada testlar metodikasi quyidagicha bo'ladi:

1. Yuqori startdan 30 m ga yugurish. Ikkita futbolchi signal berilgandan so'ng yugurishadi. Vaqt qo'l sekundlarida o'lchanadi. Har bir bola ikki minutlik dam olishdan so'ng yana yuguradi. Yaxshi natija hisobga olinadi.

2. To'p bilan 30 m ga yugurish. Signal berilgach, tusha har ikki metrda bir marta oyoq tegizib turiladi. Oradagi ikki minutlik tanaffus bilan 2 marta yuguriladi. Yaxshi natija hisobga olinadi.

3. Turgan joydan balandlikka sakrash. V.A. Abalakovning cho'ziluvchi lenta konstruksiyasi bilan o'lchanadi. Ikki marta yuguriladi. Yaxshi natija hisobga olinadi.

4. Turgan joydan uzunlikka sakrash. Futbolchi kontrol chiziq ortida turadi. Uning yonida darajalarga ajratilgan uch metrli lineyka polda yotadi. Umumiy qoida asosida o'lchaniladi. Ikki marta urinib ko'riladi. Yaxshi natija hisobga olinadi.

5. Maxsus koordinasiya uchun; "sakkizlik" sinovidan o'tish to'pni egallash texnikasini aniqlashga mo'ljallangan. Beshta futbol ustunchalari bir-biridan 10 m masofada, kvadrat holatida o'rnatiladi, bitta ustuncha o'rtada bo'ladi.

"Diqqat" va "marsh" signali berilganda sinaluvchi to'p bilan № 1 ustunchadan № 2 ustuncha tomon yuguradi, ularni aylanib o'tib, № 3 va № 4 ustunchalar tomon yuguradi. № 4 ustunchani aylanib o'tgach № 2 va № 5 ustunchalarga yetib boradi, marra esa № 1 ustuncha yonida bo'ladi. Mashqlarni bajarish vaqti hisobga olinadi. Ikki marta urinib ko'rishga ruhsat etiladi. Yaxshi natija yoziladi.

6. Diqqatni taqsimlash va to'pni olib yurish texnikasi uchun quyidagi test ishlatiladi.

Trener signal bergan futbolchi to'p bilan 20 m masofaga yuguradi, orasi 2 m dan bo'lgan 4 ustunchani aylanib o'tadi, keyin 10 m ga yuguradi. To'pni futbol maydonining jarima maydonchasi chizig'idan avvaldan ko'rsatilgan darvoza burchagi tomon tepadi. Bunda to'p tepilgunga qadar mashq bajarish uchun ketgan vaqt (sekundlarda) va to'pni darvozaga aniq yo'llash (ballarda) hisobga olinadi. Mashq ikki marta bajarilib, yaxshisi yozib qo'yiladi.

7. To'pni tepgandan keyin uzoqqa borib tushishi. To'p kuchli oyoq bilan tepiladi. To'p tepilgan joydan u borib tushgan joygacha o'lchanadi. Ikki marta urinib ko'rishga ruhsat etiladi. Yaxshi natija olinadi.

8. To'p bilan 5 x 30 m ga yugurish. Yugurish yuqori startdan boshlanadi. To'pni olib ketayotganda har 30 m da to'pga bor-yo'g'i 3 marta tepish mumkin. Ctaptga qaytib kelishi uchun 25 sek vaqt beriladi. Barcha yugurishlar payti yig'indisi hisobga olinadi.

9. Pedagogik kuzatuv. Trener yoki uning yordamchisi faqat 2 ta asosiy mashq bajarilishini – to'pni oshirish va yakkama-yakka kurashni kuzatadilar. Buning uchun maxsus blankaga elementlardan biri, bajarayotgan o'yinchining nomeri yozib qo'yiladi. Mashq aniq bajarilsa qo'shuv, xatoga yo'l qo'yilsa ayiruv belgisi ishlatiladi.

O'yindan so'ng aniq va xato bajarilgan mashqlar hisoblab chiqiladi. Keyin aniq va samarali mashqlar ajratib olinadi.

XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR

Sportda tanlashning muhim asoslaridan biri-bu tanlab olish bosqichlaridir. Ularning har birida o'ziga xos tashkil etish va tanlab olish usuliyati mavjud.

Tanlab olish tizimi sportchilar faoliyatini chuqur va atroflicha o'rganish va shu sport turining psixologiyasini bilish, sportchilarni organizmiga qo'yiladigan talablarni bilish va aniqlashga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi kunda qo'llanilayotgan ilg'or tajribalarga asosan, umidli futbolchilar og'ir yuklamali mashg'ulotlardan so'ng, o'z kuchini tez va yaxshi, to'liq, tiklashlari kerak. Sportchilarni kelajagiga baho berishda aynan shu omilga ham katta ahamiyat berish kerak.

Sportda tanlashning nazariy-asoslari, kelajagi porloq futbolchilarni tanlab olish usuli ilmiy jihatdan o'rganishni tashkil etishga imkon beradi.

Futbolda tanlab olishni uchta turi farqlanishi ma'lum bo'ldi:

1.Boshlang'ich tanlab olish. Bu yerda futbolga qiziqishi bo'lgan yosh bolalarni ko'pchiligi jalb qilinadi.

2.Kompleks baho olish – bu yerda turli mutaxassislar (murabbiy, vrach, psixolog) ishtirok etishadi.

Futbolda kompleks nazorat alohida ahamiyatga ega. Kompleks tekshirishdan maqsad-har bir sportchini tayyorgarligi darajasini har tomonlama tekshirishdan iborat. Kompleks tekshirishlarda maxsus testlardan foydalaniladi.

To'g'ri tanlab olish va kelajakni ishonch bilan aytish shug'ullanuvchilarning dastlabki va oxirgi natijalari o'rtasidagi aloqadorlik bilan aniqlanadi, bunda ularning o'sish darajasi ham hisobga olinadi.

Bolalar bilan ishlash tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'qish boshlanishidagi sport natijalarining tez o'sishi kelajakdagi yuqori natijalarga kafil bo'la olmaydi. Shunday hodisalar ham bo'ladiki, sport bilan aktiv shug'ullangan bolalar keyinchalik kattapoq bo'lganlarida doim mashg'ulotlarga qatnashishlari natijasida ularda sport ko'rsatkichlari dinamikasi yaxshi bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Konuni. (1992 yil 14 yanvar) "Xalq so'zi" gazetasi. 1992 19 fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. 2000 yil 22 may. Toshkent.
3. Ukaz prezidenta Respubliki Uzbekistan. O sozdanii fonda detskogo sporta Uzbekistana. 24.10.2002. №UP 3154.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch T.: "Ma'naviyat", 2010-176 b
5. Karimov I.A. Mustakillikka erishish ostonasida. –T.:, Uzbekiston 2011-440 b.
6. Karimov I.A. "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" O'quv qo'llanma T.: 2012-272 b.
7. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X., Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubi. O'zDJ TI – T 2005
8. Akramov R.A. Igrovyye trenirovochnyye nagruzki v futbole. uchebnoye posibe. –T. izd Ibn Sino. 2002 g.
9. Akramov R.A. Futbol darslik .- T.: LiderPress 2005
10. Akramov R.A. Talipdjanov A.I. Podgotovka futbolistov vysokoy kvalifikasii. Uchebnoye posobiye. Tashkent, 1994.
11. Arkadyev B.A. Taktika futbolnoy igrы. -M. Fizkultura i Sport, 1968 g
12. Aliyev M.B., Usmonxo'jayev T.S., Sagdiyev H.H. Sport o'yinlari. Futbol. T.,Ilm Ziyoy, 2007.
13. Godik M.A. – Kontrol trenirovochno'x i sorevnovatelno'x nagruzok. M., FiS., 1980 g.
14. Godik M.A. Fizicheskaya podgotovka futbolistov. - M.: Terra-Sport, Olimpiya Press, 2006.

15. Zasiorskiy V. M. – Fizicheskiye kachestva sportsmena. M., FiS, 1970 g.
16. Iseyev Sh.T. Analiz atakuyushchix deystviy futbolistov vysokoy kvalifikatsii. J. Fan-Sportga № 1, 2004.
17. Koshbaxtiyev I.A. Upravleniye podgotovlennosti futbolistov vysokoy kvalifikatsii. T 1998.
18. Kurbanov Z.A. – Organizatsiya uchebno-trenirovochnogo prosessa futbolistov v usloviyax Uzbekistana. (Uchebnoye posobiye), Tashkent, 2000.
19. Mahkamjanov K.M., Nasriddinov F.N. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini takomillashtirish. T. 1995. 74 b.
20. Nurimov R.E. Sovernestvovaniye takticheskoy deystviy futbolistov vysokoy kvalifikatsiy –T. 2000 g.
21. Nurimov R.E. Texnika-takticheskaya i fizicheskaya podgotovka kvalifitsirovanno'x futbolistov. –T. 2001 g.
22. Nurimov R. N. Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash O'zJTI – T.2005
23. Platonov V.A. Obshchaya teoriya podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte . – Kiyev olimpiyskaya literatura. 1997 s. 583.
24. Platonov V.N., Saxnovskiy K.P. Podgotovka yunogo sportsmena. Kiyev.Radyanska shkola. 1988.-288 s.
25. Savin S.A. Trenirovka futbolistov. M. FiS. 1995.
26. Sergeyev G.M. Istoriya futbola v Uzbekistane. V sbornike nauchnykh trudov. Tashkent, 2001.
27. Sergeyev G.M., Nurimov R.I., Sarkisyan R.S. Futbol buyicha bolalar va usmirlar sport maktabi , olimpiya o'rinbosarlari bolalar va o'smirlar maxsus maktabi , olimpiya o'rinbosarlari bilim yurti , o'quv – mashq qilish va sport kamolotga erishish guruxlari uchun dastur.

(O'zbekiston Respublikasi ta'lim vazirligi Respublika ta'lim markazi – Toshkent 1997y 122 b.

28. Futbol. uchebnoye posobiye dlya trenerov. / pod. Red. Savina-M. Fis. 1969 g.

29. Futbol. Основы игры. Самый короткий путь к изучению основ футбола. D. Milki. M., 2007 g.

30. Futbol dlya nachinayushix. D. Smit M.2008

31. Futbol / P.N. Kazakovning umumiy taxriri ostida / -T. O'qituvchi. 1981 y.

32. Futbol. Uchebnik. Pod общ. red. R.I. Nurimova. T., 2005.

33. Futbol. Darslik . R.A. Akramov umumiy taxriri ostida. T.: LiderPress 2005.

34. Chanadi. A. Futbol-trenirovka. M.: Fizkultura i sport, 1985. - 256 s.